



HISTORY OF THE UZBEKISTAN PRESS IN 1900-1917: ON THE EXAMPLE OF TASHKENT, KOKAN, AND SAMARKAND PERIODICALS

Dilafruz R. Atamuratova

PhD, Associate Professor

Department of History

Urgench State university named after Abu Reyhan Biruni

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Uzbekistan, Toshkent

ABOUT ARTICLE

Key words: press, newspaper, periodical, printing, circulation, column, publishing, editorial, article, news.ri

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: The work of the periodical press, which is part of the mass media, was fully formed in the country in the first quarter of the 20th century. The context of the press, which acquired political significance, was aimed at forming a spirit of discontent with the domination of the khanates that existed in Central Asia and this system of government among the local population, who subsequently lost faith in religious and ideological beliefs, and at instilling party ideas. At one time, the local people's press, formed during the period of tsarist rule, also went through its development stage. From social and literary publications, it turned into a press that pursued political goals and was imbued with ideas of independence. The article examines the history of the Tashkent, Kokand and Samarkand periodicals in 1900-1917, as well as the goals of the newspapers that operated there.

1900-1917-YILLARDA O'ZBEKISTON MATBUOTI TARIXI: TOSHKENT, QO'QON, SAMARQAND DAVRIY NASHRLARI MISOLIDA

Dilafruz R. Atamuratova

PhD, dottsent

Tarix kafedrasи

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

O'zbekiston, Urganch

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: matbuot, gazeta, davriy nashr, tipolitografiya, tiraj, rukn, nashriyot, bosh maqola, maqola, xabar.

Annotatsiya: Ommaviy axborot vositalari turkumiga kiruvchi davriy matbuot nashri ishi XX asrning birinchi choragida o‘lkada to‘liq shakllanib ulgurdi. Siyosiy ahamiyat kasb etgan matbuot konteksti O‘rta Osiyoda shaklan mayjud xonliklar boshqaruvi va mahalliy xalqda mazkur boshqaruv tartibiga norozilik ruhini shakllantirish, keyinchalik diniy-mafkuraviy e’tiqodga ishonchini yo‘qotish hamda partiyaviy g‘oyalarni singdirishni maqsad qilib olgandi. Bir paytning o‘zida chor hukumati davrida shakllangan mahalliy xalq matbuoti ham o‘ziga xos rivojlanish bosqichini bosib o’tdi. Ijtimoiy-adabiy nashrlardan siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi, istiqlol g‘oyalari bilan yo‘g’rilgan matbuotga aylandi. Maqolada 1900-1917-yillarda Toshkent, Qo‘qon, Samarqand davriy nashrlari tarixi, faoliyat olib borgan jaridalarning maqsadi kabi masalalar bayoniga e’tibor qaratiladi.

ИСТОРИЯ ПЕЧАТИ УЗБЕКИСТАНА В 1900-1917 ГГ.: НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ, КОКАНДСКОЙ, САМАРКАНДСКОЙ ПЕРИОДИЧЕСКИХ ИЗДАНИЙ

Дилафруз Р. Атамуратова

Кандидат исторических наук, доцент

Кафедра истории

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com

Узбекистан, Ургенч

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пресса, газета, периодическое издание, типографский, тираж, колонка, издательский, редакционный, статья, новости.

Аннотация: Работа периодической печати, входящей в состав средств массовой информации, полностью сформировалась в стране в первой четверти XX века. Контекст печати, приобретшей политическое значение, был направлен на формирование у местного населения духа недовольства господством ханств, существовавших в Средней Азии, и этой системой правления, впоследствии разуверившегося в религиозных и идеологических убеждениях, и на привитие партийных идей. В свое время местная народная печать, сформировавшаяся в период царского правления, также прошла свой этап развития. Из общественно-литературных изданий она превратилась в печать, преследовавшую политические цели и проникнутую идеями

независимости. В статье рассматривается история ташкентской, кокандской и самарканской периодики в 1900-1917 годах, а также цели газет, которые там действовали.

Kirish

1900-yildan chet elda ijtimoiy-siyosiy ruhdagi “Iskra” gazetasi chiqa boshladi. Gazeta sonlari nafaqat Rossiya balki, Turkiston o’lkasiga qadar kirib keldi. Keyinchalik “Vpered” “Proletariy”, “Novaya jizn”, “Volna” gazetalari keng tarqaladi. Bu gazetalar bolshevistik kayfiyatda bo’lib, ko’pchligi chet davlatlarda nashr qilingan, jumladan “Vpered” gazetasi 1905-yil yanvaridan Jenevada chop qilingan. T.Ernazarov ma’lumotlariga ko’ra, siyosiy-targ‘ibot kayfiyatidagi gazetaning Turkistonda 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 16-, 17- va hokazo sonlari tarqalgan (Ernazarov, 1959, b. 47). “Iskra” kabi “Vpered” gazetasida ham Turkistondagi inqilobiy harakatlar to‘g‘risidagi maqolalar chop qilingan.

1904-1905-yillardagi siyosiy jarayonlar matbuot sahosaida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmad, chunki matbuot – haqiqiy quroqga aylanib bo‘lgan edi. Ya’ni RSDRPning Turkistonda 1905-yilda sotsial-demokratik kayfiyatdagi ilk bosmaxonasi o‘z faoliyatini boshlaydi. Unga K.D.Litvishko boshchilik qildi. 1905-yil 20-sentyabrda O‘rta Osiyodagi ilk nolegal “Rabochiy” gazetasining birinchi soni chop etiladi. Bundan tashqari Markazda va joylarda bolsheviklar legal ya’ni qonuniy yo‘l bilan ham gazetalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishdi. Dastlabki bunday gazetalardan “Novaya jizn” bo’lib, 1905-yil 24-oktyabrda uning ilk soni chop etildi. Turksiton tarixida bir necha kun faoliyatini olib borgan jaridalar ham bo‘lgan. Shundaylardan, 1906-yil 1-9-iyul kunlari Toshkentda A.G.Zurabova muharrirligida “Noviy put” nomli gazeta bo’lib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalarni yoritish ko‘zda tutilgandi. 10-iyulda hukumat talabi bilan yopilib, uning o‘rniga 20-iyuldan “Rabotnik” gazetasi chiqa boshlaydi, ammo faqat 3 soni bilan Turkistonda nashri yo‘lga qo‘yilgan jarida sifatida tarixga kiradi. Bu gazetalar RSDRP ta’sirida chor hukumatiga qarshi faoliyat olib borishga intilgan ijtimoiy-siyosiy bolshevistik kayfiyatda bo‘lgan, ko’pchiligining nashr faoliyati amaldagi qonunlarga qarshi edi. Bular jumlasiga “Iskra”, “Vpered”, “Proletariy”, “Novaya jizn”, “Rabochiy” nashrlaridan tashqari 1906-yildan nashr qilina boshlagan “Soldatskiy listok - Pravda” gazetasini ham kiritish mumkin. Bu gazetaning ham 6 soni nashr yuzini ko‘rgan. Shunday bo‘lsa-da RSDRP ta’sirida rasman faoliyat olib borgan gazetalar ham bo’lib, ular jumlasiga - “Samarkand”, “Russkiy Turkestan”, “Asxabod” gazetalarini kiritish mumkin (Epifanov, 1968). Taqdiri “Samarcand” jaridasi kabi bir necha marta nashri tugatilib qayta tiklangan “Russkiy Turkestan” gazetasi 1905-yilning noyabridan ishini boshlaydi. Muharriri sifatida M.V.Morozov ishlay boshlaydi, mazkur jarida ham RSDRPning Toshkentdagagi organi sifatida faoliyat olib boradi. 1906-yil 18-iyuldan muharrirlik A.V.Xudashga o‘tib, noshirlilik

V.M.Morozovning o‘zida qoladi. Ba’zi sonlarida A.B.Boreysha muharrir vazifasini bajargan. Hajman 4-6 sahifa atrofida nashr qilinib, 1906-yilning 1-yanvaridan 24-avgustiga qadar jami 173 soni nashr qilinib, 5-oktyabrdan “Turkestan” nomida chop qilinadi. Bu gazeta ham Chor hukumati senzurasiga uchrashi natijasida yopib qo‘yiladi. 1907-yilning 7-yanvaridan “Russkiy Turkestan” nomi qayta tiklangan bo‘lsa-da, 15 soni chiqadi va butunlay faoliyati to‘xtatiladi. Demak, “Russkiy Turkestan” jaridasi faoliyati 4 marotaba to‘xtatilgan va qayta tiklangan, rasman hech bir tashkilotning nomidan nashr qilinmagan bo‘lsa-da, gazetaning 1906-yildagi sonida RSDRPning “Novaya jizn” gazetasi “Russkiy Turkestan” jaridasini “o‘z himoyasi ostiga oladi” mazmunidagi maqolaga qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarni yorituvchi gazeta emas, balki sotsial-demokratik kayfiyatdagi gazeta sifatida faoliyat olib borayotganligi talqin qilinadi. Davr matbuotining o‘ziga xos jihat Chor hukumatiga qarshi kurashning markazdan joylarga ko‘chish holati kuzatilib, o‘zlarini sotsial-demokratlar deb hisoblagan bolsheviklarning matbuot organlari hamda mensheviklar o‘rtasidagi kurash bilan xarakterlanadi. Jumladan, 1905-yilning 2-noyabridan 1908-yilning 13-martigacha Toshkentda kundalik “Sredneaziatskaya jizn” gazetasi faoliyat yurita boshlaydi. Sotsial-demokratlarga qarshi konstitutsion-demokratik g‘oyalalar tashviqotini amalga oshiradi. Aynan shunday formatda Samarqandda 1905-1908 yillarda nashr qilingan “Russkaya Okraina” va Yangi Marg‘ilonda faoliyat olib borgan, nashri 1906-yildan boshlanuvchi “Fergana”, “Golos narodnoy svobodi” gazetalari bo‘ldi. 1913-yilda bolsheviklar g‘oyasi tashviqoti uchun nashri Toshkentda yo‘lga qo‘yilgan “Tashkentskiy rabochiy” gazetasining 13-noyabrda 65 ta nuxsada birinchi va oxirgi nashri amalga oshiriladi. Gazetaning bosh maqolasida mualliflar N.K.Tereshkevich va Ya.Ya.Upmalovlar Chor hukumatiga qarshi kurashda “Tashkentskiy rabochiy” gazetasi “...yo‘l ko‘rsatuvchi yulduz” vazifasini bajarishini ta’kidladilar. Bolshevikistik g‘oyalarga qarshi jiddiy kurash olib borgan gazetalar jumlasiga “Turkestanskiy kuryer”, “Samarkand”, “Asxabad”, “Turkestanskoe slovo”, “Najot”, “Xurriyat” gazetalarini ham kiritish mumkin.

Tadqiqotning Usullari

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar: tarixiylik, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlashtirish asosida yoritilgan.

Natijalar

Aynan mana shu davrdan Turkiston jadidlari ham matbuot tizginini qo‘lga olib, istiqlolchilik g‘oyalari ta’sirida O‘zbekiston matbuoti tarixida yangi davrni boshlab berishdi.

1906 yilda Toshkentda “Taraqqiy” gazetasi chop etila boshladi. Bu gazeta 27-iyundan 20-avgustga qadar nashr qilindi. Garchi “Taraqqiy” gazetasi atigi 72 kun yashab, 20 soni bosilgan bo‘lsa-da, Turkistonda milliy matbuot shakllanishida sezilarli va muhim rol o‘ynadi. Gazetaning 9-, 10-, 16-sonlaridagi materiallarga asosan, “Taraqqiy” Ivan Geyerning “O‘rta Osiyoning

umrgizorligi taraqqiy” gazetasi o‘rniga nashr qilingan. “Taraqqiy” gazetasining 16-sonida “Idoradin” sarlavhasi bilan “Gazetalar yetmagan eski va yangi mushtariyalarimizdan reja qilurmizki, qo‘llaridagi kvitansiyalarini vaqt va no‘mrasи ila adreslarini ochiqcha yozib idorag‘a ma’lum qilsinlar” deb xabar beriladi (Abduazizova, 2000). Tadqiqotchilar tomonidan o‘z nomidan kelib chiqib o‘z davrining taraqqiy parvar g‘oyalarini ilgari surgan davriy matbuot namunasi sifatida talqin qilinadi. Siyosiy-ijtimoiy masalalar mazkur gazetada ham ustunlik qiladi. Jumladan, mustamlakachi hokimiyat qarshi kurashi, istiqlol uchun harakatlar, davr uchun og‘riqli masalalardan dingga xurmatsizlik qattiq tanqid ostiga olinadi. Buni gazetaning birinchi sonidagi ilk sahifasi satrlaridan ham anglash mumkin: “Biz muslimonlarning xurriyatga haqlari bormu? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz martaba yo‘q! ... Bu ikki yil ichida hamma xalq tortishdi, kurashdi. Muslimonlar esa uslashdi. Peterburg, Moskva va boshqa joylardagi tortishuvlar, mehnatkashlarning haq-huquq talashganini ko‘rib bizning bolalarimiz bizni vahshiyalar deb atalar”. Gazetada Turkiston jadidlari faol bo‘lib, ta’lim-tarbiyaga oid maqolalar bilan ishtirok qilishgan, gazetaning “Xorijiya xabarlari”, “Mamlakat xabarlari”, “Rusiya xabarlari”, “Toshkent axbori” singari ruknlar bo‘lgan. Gazeta haftada 2 marta nashr qilingan. M.Babaxanov gazetaning jami 19 soni, T.Ernazarov va A.Akbarovlar 17 soni chiqqanligini qayd etishadi (Babaxanov, 1987). Gazeta M.G.Vaxabov, A.I.Akbarov, T.E.Ernazarovlar ta’kidlaganidek jadidchilik ruhidagi gazeta hisoblangan (Braginskiy, 1972).

“Taraqqiy” jaridasini izidan Munavarqori Abdurashidxonov noshirligida 1906-yil sentyabr oyidan “Xurshid” gazetasi (10 son) (Babaxanov, 1987, b. 79). nashr etila boshlaydi. Bu gazeta “Taraqqiy” jaridasining izdoshi bo‘ldi. Gazeta “Jamiyati xayriya” tashkilotining targ‘ibotiga boshchilik qilgan bo‘lib, dastlabki 4 ta soni litografiyada, keyingilari esa mix bosmada bosilgan. Uning muharriri va noshiri Munavarqori Abdurashidxonov bo‘lib, 1906-yilning 6 snetyabridan 12-noyabrigacha o‘zbek tilida Zanjirlik mahallasida G‘arif Oxun xonardonida bosilgan (Babaxanov, 1987). Gazeta ta’limdagi islohotlar hamda kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq an’analarni yoritishga e’tibor qaratgan. Gazetaning 1906-yil 21-sentyabrdagi sonidagi maqolada, gazeta muslimonlar o‘rtasida birlik yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas degan qarashning yolg‘onligini isbotlashni maqsad qilganligi ta’kidlangan.

“Shuhrat” gazetasi ham 1907-yil dekabrdan Toshkent shahrida Abdulla Avloniy muharrirligida chiqsa boshlaydi. Bu gazetalar chorizm senzurasi ostiga olinadi. Gazeta ma’rifatparvalik g‘oyalarini o‘zida ifodalab, yangi usul maktablari, ilm-fan rivojini targ‘ib qilgan. Gazetaning 10 ta soni nashr yuzini ko‘rdi. Xuddi shunday holatga 1908-yil aprel oyidan gazetasi nashr etila boshlangan “Osiyo” (jami 6 soni) gazetasi ham tushadi. Bu gazetani tashkil etishda taniqli o‘zbek pedagogi A.Avloniy katta g‘ayrat bilan ishtirok etgan. Gazeta Toshkent shahrida

o‘zbek tilida haftasiga ikki marta nashr qilish rejalashtirilgan. Noshiri Muhammadjon Bektemirov edi (Braginskiy, 1972). Besh son nashr etilgandan so‘ng, chor ma’muriyatni tomonidan yopildi.

“Sadoi Farg‘ona” gazetasi Qo‘qonda chop etilgan milliy tildagi nashrlarning to‘ng‘ichi edi. 1898-yil 26-iyulda Turkiston general-gubernatori faqat rasmiy rus tilidagi gazetalar nashr etishga ruxsat berishi natijasida ilk rasmiy nashr sifatida “Ferganskie oblastniye vedomosti” (1906-1917 yy.) gazetasi chop etila boshlaydi. 1911-yil 1-yanvar 1911-yil 18-may oralig‘ida Qo‘qonda “Golos Fergani” gazetasi nashri kuzatiladi, uning muharriri va noshiri A.G.Gavrilov bo‘lib, jami 107 soni chiqqan. Farg‘onada “Sadoi Farg‘ona” ilk o‘zbek tilida chiquvchi jarida hisoblanadi. Nashri 1914-yilning 3-apreldidan amalga oshirila boshlab noyabrga qadar davom etadi. “Samarqand” gazetasi kabi 500-600 tiraj atrofida haftada 3 marta chop qilingan. Gazetaning ilk soni Qo‘qonda O.Maxmudovning xususiy matbaasida chop etildi. Gazetaning jami 126 nomeri chiqqan bo‘lib, bir necha nomeri chiqqan rus tilida “Ferganskoe exo” shakli ham bo‘lgan (Abduazizova, 2000, b, 179). Obidjon Mahmudov muassisligida chop etilgan ushbu gazetaning musahhihi (korrektori) Ashurali Zohiriy bo‘lgan. Usmon Nuriy tarjimon bo‘lib ishlagan. Bu gazeta 1914-yil 3-apreldan 1915-yil iyun oyigacha chop etilgan bo‘lib, jami 123 ta soni chiqqan (Abduazizova, 2000, b, 159). Gazetaning ruscha varianti ham bo‘lib, “Ferganskoe exo” nomi bilan 1917-yil 17-iyuldan chiqa boshlagan (Abduazizova, 2000, b, 40). Gazetaning 1914-yil 3-apreldagi 1-sonida “Haftada uch marta chiqadurg‘on ilmiy, fanniy, siyosiy turkcha gazetadir” deb ma’lumot berilgan (Xamraqulov). “Sadoi Farg‘ona”ning maqsadi haqida uning muharriri Obidjon Mahmudov gazetaning 1-sonida bosilgan “Maqsad va maslak” maqolasida: “Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki xalqimizga qo‘limizdan kelgan qadar xizmat etmoqdir. Xalqimizda matbuot va jaridai milliyaga kundan-kun shavq va rag‘bat o‘zgardi. Gazeta moddiy jihatdan ta’minlangan” deb takidlاب o‘tgan. Gazeta A-2 formatda, 4 sahifada, Qo‘qon shahridagi Haydarbek mahallasida O.Maxmudovning shaxsiy kutubxonasi nashr qilingan. Har son tiraji 500-600 nusxani tashkil etgan. Mazkur jarida nashri chor hukumati tomonidan ta’qiqlangach 1917-yil 2-apreldan “Tirik so‘z” gazetasi nashriga boshchilik qiladi. “Tirik so‘z” gazetasi “Pechatnoe delo” matbaasida chiqqan, haftasiga 3 soni chiqqan. Umuman olganda, milliy matbuot shakllanishida O.Maxmudovning roli katta, chunki ko‘pchilik vaqtli matbuot namunalari uning boshchiligida nashr qilingan. Qo‘qonda nashri yo‘lga qo‘yilgan gazetalardan yana biri “Turkestanskiy kray” deb nomlanib, noshiri va muharriri vazifasini I.S.Shagiaxmedov bajargan. Umumiyligi 66 soni chiqib, gazeta 1916-yil 5-apreldan 13-noyabrgacha ish olib brogan. Son tiraji 700 nusxa bo‘lgan (Babaxanov, 1987).

XX asr boshlarida birgina Samarqandning o‘zida 16 ta bosmaxona bo‘lgan bo‘lsa, ularning barchasi rus ma’murlari tomonidan tashkil qilingan edi. Ular, odatda, o‘z faoliyatini uzoqroq davom ettirish maqsadida bir-birlari bilan birlashib, sherikchilik qilishgan. 1907 yilda Sliyanov-

Gazarov bosmaxonasi aka-uka Ignatovlar matbaasi bilan birlashib, Sliyanov-Gazarov va K bosmaxonasini tashkil etadilar (Boboxonov, 1979). Matbuot tarixiga nazar solinsa, Samarqandda ham XIX asrning oxirlarida dastlabki gazetalar nashri amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin. “Okraina” gazetasi rus tilida 1890-yildan nashr qilina boshlaydi, mazkur gazeta xususiy hisoblangan. 1894-yilda nashr ishlari Toshkentga ko‘chiriladi va 1898-yilgacha faoliyat olib boradi, umumiy hisobda 107-soni eng oxirgi soni hisoblanadi. 1909-yilda Samarqandda “Samarkandskoe utro” gazetasining nashri yo‘lga qo‘yiladi. Kundalik badiiy-adabiy yo‘nalishda bo‘lib, I.V.Chernov muharrirligi va P.N.Ignatyev noshirligida jami 12 ta soni chiqarilgan (Babaxanov, 1987). Ilk mahalliy gazeta “Samarqand” nomi (45 son) bilan nashr qilingan. 1913-yilning aprelida M.Behbudiy muharrirligida nashri yo‘lga qo‘yiladi. Dastlabki sonlari 2 sahifa, keyinchalik 4 sahifada chiqqan. Gazeta 26-, 27-sonlaridan “Noviy Samarkand” nomi ostida chiqa boshlaydi. Ya’ni gazeta nashri tarixida bir necha marta bosishga ruxsat olinib, 1913-yil 23-maydagi Samarqand gubernatori ruxsati bilan yuqoridagi nomni oladi va 28-sonidan yana eski nom bilan nashri davom etiladi. Bu haqida Behbudiy bu holatni maqolalaridan birida tanqid ostiga oladi. Behbudiy gazetaning “Xorijiya xabarlari” “Bolqon muhorabasi” ruknlarida xorij matbuoti xabarlarini berib borgan (Abduazizova, 2000, b. 101). Umuman olganda, chor senzurasi ta’sirida “Samarqand” gazetasi “Zeravshan”, “Noviy Samarkand”, “Russkiy Samarkand” nomlari bilan nashr qilingan. Ya’ni, 5 marta faoliyatini to‘xtatilib, qayta ochilib nashr ishlari boshidan tashkil etilgan gazeta hisoblanadi. Uning birinchi muharriri N.V.Bolotin, keyinchalik P.V.Pozdnyakov, 1905-yildan M.V.Morozov bo‘ladi. Gazeta tiraji 2-2,5 ming atrofida bo‘lib, Samarqanddan tashqari Ashxobod, Chorjo‘y, Marv, Toshkent shaharlarigacha tarqagan. Boku, Moskva shaharlaridan gazetaning yangi sonlariga yozilish holatlari uchraydi.

Samarqandda nashr qilingan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarni yoritishga mo‘ljallangan ammo bolsheviklar harakatiga qarshi kayfiyatdagи “Golos narodnoy svobodi” gazetasi 1907-yilning 23-yanvaridan 1-fevraliga qadar chop qilingan bo‘lib, umumiy 9 soni nashr yuzini ko‘rgan. Gazeta muharriri V.S.Izmaylov bo‘lgan. Shu nomdagи gazeta 1906-yildan Yangi Marg‘ilon shahrida nashr qilina boshlaydi. Bu ikkala gazetaning tashkilotchilari kadetlar bo‘lishgan. “Samarqand” gazetasi o‘rniga 1913-yilning 20-avgustidan “Oyina” jurnali nashr etila boshlagan. Jurnal 1913-yilning 20-avgustidan 1915-yil iyunigacha o‘zbek va tojik tillarida tiraji 600 nusxani tashkil etgan. Umumiy 68 soni nashr qilingan. Jurnal diniy-dunyoviy ilmlar targ‘ibotini amalga oshirgan. Ko‘pgina mualliflar qatorida jurnal muharriri Behbudiyning o‘zi ham maktab va madarasalarda ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablari faoliyatini keng yoritib boradi. Behbudiy o‘z maqolalarida Turkistonga shifokorlar, injelerlar, sudyalar, notariuslar kerak deb chaqiradi. “Oyina” jurnali ham aynan shu Sliyanov-Gazarov bosmaxonasida chop etilgan edi (Do‘s tqorayev, 2009). Keyinchalik bu nashriyot Demurov tipo-litografiyasiga

qo'shilib, yagona yirik poligraf bazasiga aylanadi. Jadidlarning ko'plab asarlari shu kabi bosmaxonalarda dunyo yuzini ko'rgan. Asta-sekin ularning o'zi ham kichik-kichik nashriyot shirkatlari tuza boshlagan. Xususan, "Maktab", "Ravnaq", "Nashriyot", "G'ayrat" matbaalari shular jumlasidan. "Oyina" jurnalida ham "Nashriyot", "G'ayrat" jamiyatlariga yo'llangan bir nechta tabrik-maqolalar uchraydi. Bu litografiyalar texnik jihatdan mukammal bo'lmay, mahalliy aholi ham yetarli malakaga ega emas edi. Ularda, asosan, darsliklar va kam nusxada risolalar chiqarilgan. Jadidlar orasida Avloniy, Munavvarqorilar himmatparvar mulkdorlar ko'magi bilan matbaa ishlarini yurgizishgan. Behbudiyning ham nashr ishlari bilan shug'ullanganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar ko'p bo'lsa-da uning nashriyoti haqida faktlar yetarlicha emas. Ushbu nashriyot o'z bosmaxonasiga ega bo'lmay, balki kutubxona tarkibida faoliyat yuritgan va Behbudiyl o'zi nashrga tayyorlagan kitoblarni Samarcanddagi bosmaxonalarda chop ettirgan. Sababi bir paytda ham kutubxona, ham bosmaxona faoliyatini mablag' va uskunalar bilan ta'minlash boshqacha sharoitni talab qildi. "Nashriyoti Behbudiya"da ilk bor Behbudiyning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi, darslik qo'llanmalari, "Padarkush" dramasi va Fitratning "Sayyohi hindiy" asari ruschaga o'girilib chop etilgan. Garchi bu kitoblar narxi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, Behbudiyl "ularni o'z masorifi bilan bosib tarqatdi". Behbudiyl o'z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni "tekinga tarqatgan" yagona muallim edi. Kutubxonalar tarkibiga kiruvchi nashriyotlar faoliyati bugungi kunda ham davom etayotgan jarayondir. "Behbudiya kutubxonasi" hamda "Nashriyoti Behbudiya" ham birgalikda xalqqa xizmat qilgan Behbudiyning jadid qiyofasini yoritib turuvchi ziyo maskanlari bo'lib qoldi. "Behbudiya kutubxonasi" va "Nashriyoti Behbudiya" 1908-1915-yillarga qadar faoliyat olib bordi. Kutubxona fondidagi noyob asarlar va qo'llanmalar ko'pchilik kitobxonlar ehtiyojini qondirdi. "Nashriyoti Behbudiya"ning sa'y-harakatlari bilan chop etilgan xarita va darsliklar muktab muallim va shogirdlari uchun ko'p yillar xizmat qildi. 1914-yil 23-oktyabrdan navbatdagi gazeta nashri yo'lga qo'yildi. Uning noshiri va muharriri vazifasini G.M.Rik-Bogdaniko bajargan, jami 30 soni nashr qilinib, sonlar 2-4 sahifadan iborat edi. Faoliyatini 1915-yil 30-yanvarda tugatadi. Samarcandda 1916-yil 1-oktyabrdan 30-dekabrgacha kundalik "Samarkandskiy telegraf" gazetasi ish faoliyatini boshlaydi. Rus tilida nashr qilinuvchi gazetalardan bo'lib, uning noshiri A.M.Sigal, muharriri P.N.Ignatyev edi. O'ziga xos tomoni har soni bitta sahifadan iborat edi. Gazetaning umumiyy 73 soni nashr qilingan. Gazeta partiyadan holi hisoblanib, o'lka hayotini yorituvchi va madaniy qiziqishlarini ifodalovchi gazeta hisoblangan.

Muhokama

1913-yildan shaharlarda gazeta-jurnal chiqarish orqali tashviqot va targ'ibot ishlari olib borish imkoniyati tug'ildi (Abduazizova, 2000, b. 96). A.Avloniy 1905-1917-yillarda Turkistonda 22 ta gazeta va 8 ta jurnal nashr etilganligini qayd etadi. 1908-yilda rus tilida 17 gazeta nashri

amalga oshirilgan, shu yilning o‘zidan “Kokandskiy listok”, “Vechernaya zarya”, “Turkestanskaya jizn”, “Turkestanskiy kuryer” gazetalari chiqa boshlagan. Jumladan, “Kokandskiy listok” gazetasi kundalik nashr qilingan bo‘lib, nashr ishlari 1908-yilning 19-oktyabridan 1909-yilning 11-iyuliga qadar faoliyat olib borib jami 203 soni chiqqan. 1909-yilda esa jami 15 ta gazeta rus tilida nashr qilingan. “Za narod”, “Samarkandskoe utro”, “Tashkentskiy golos”, “Tashkentskoe utro” gazetalarida rasmiy telegrammalar nashr qilingan. Ba’zi gazetalar nashri chor hukumati senzurasi doirasiga tortilib gazetalar faoliyati to‘xtatilgan bo‘lsa, ba’zilari jumladan, “Turkestanskaya pochta” (Toshkent 1913-yil fevral-may), “Ferganskiy listok” (Qo‘qon 1913-yil yanvar) gazetalari gazetxonlar tomonidan qiziqish bo‘lmaganligi yoki Qo‘qonda nashr qilingan “Ferganske otkliki” gazetasi kabi (1912-yil 11-noyabrdan 1914-yil 12-martgacha) nashr uchun mablag‘ yetishmasligi bois faoliyati tugatilgan (Babaxanov, 1987).

Xulosa

1917-yilda O‘rtta Osiyoda 20 ta atrofida gazeta va jurnallar nashr qilinib, ulardan 6 tasi – “Najot”, “Turk eli”, “Ulug‘ Turkiston”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Xurriyat”, “Turon” o‘zbek tilida nashr qilingan. “Najot” gazetasining muharrirli M.Abdurashidxonov va V.Nalivkin bo‘lib, jarida Toshkentda haftasiga 2 marta 4 sahifali formatda nashr qilingan. Uning epigrafi “tenglik, ozodlik,adolat” bo‘lib mahalliy xalq manfaatlarini ifodalovchi, istiqlol g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan gazeta edi. Istiqlol g‘oyalarni sonlarida ilgari surgan jaridalardan yana biri “Xurriyat” bo‘lib, Samarqandda haftada ikki marotaba 4 sahifali formatda nashr qilingan gazeta bo‘lgan. Muhammirlari vazifasida A.Mansurzoda, 27-sonidan A.Fitrat, 75-sonidan X.Shukrullayevlar ishlagan. Gazeta “Zarafshon” nashriyoti tomonidan bosilib, rasmiy tili o‘zbe tili, ammo ba’zi sonlarida tojik tilida maqola va she’rlar bosilib turgan. Umumiyligi 86 soni chiqib, shundan 24 soni 1918-yilda nashr qilingan. Gazetaning Samraqanddan tashqari Buxoro, Marv, Qo‘qon, Toshkent, O‘ratepa, Chimkent shaharlarida ham o‘quvchilari bo‘lgan. Bu davr jaridalari siyosiy maydonga tortilgan, ba’zilari mustamlakachilik g‘oyalarni ifodalagan bo‘lsa (chor hukumatining hududda chiqarilgan gazetalari), ba’zilari istiqlolchilik g‘oyalari bosh bo‘ldi (mahalliy xalq tomonidan nashr qilingan jaridalar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Бабаханов М. Из истории периодической печати Туркестана. – Душунбे, Изд. Дониш, 1987.
2. Бабаханов М. Предпосылки революционного союза трудящихся Туркестанского края с российским пролетариатом. – Душанбе, 1975.
3. Бобохонов, А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент, 1979.
4. Брагинский И.С. О природе среднеазиатского джадидизма в свете литературной деятельности джадидов. – В кн.: Из истории таджикской и персидской

литературы. – М., 1972.

5. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Гулом, 2009.

6. Эрназаров Т. Туркистанда вактли матбуот (1870-1924 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.

7. Епифанов В.М. Трибуна большевиков Туркестана (Газета «Самарканд» 1904-1907). – Т., 1968.

8. Туркистан матбуоти тарихи (1870 – 1917). Тузувчи Н. Абдуазизова. – Т.: Академия, 2000.

9. Хамракулов С. Кўқон шаҳрида миллий даврий матбуотнинг шаклланиши ва ривожланиши // <https://www.bukhari.uz/?p=36833>